

XIVANING ADABIYOTSEVAR XONLARI – AKA – UKA ELTUZAR HAMDA MUHAMMAD RAHIMLAR HUZURIDA O‘TKAZILGAN ADABIY MAJLISLAR

Sherxon QORAYEV,

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Xorazmda hukmdorlik barcha sultonlar adabiyotni sevgan, san‘atga qiziqqan, she‘riyat va san‘at ahlini qadrlagan. Ana shunday Xiva hukmdorlaridan biri Eltuzar Muhammad Bahodirxon ibn Avaz Inoq ibn Muhammad Inoqdir. Otasi vafotidan so‘ng Eltuzarxon soxta xon Abulg‘ozi V ni taxtdan tushirib, o‘zini xon deb e‘lon qilgan Xorazm qo‘ng‘irotlari sulolasining birinchi vakilidir. Manbalarda yozilishicha, *“Hazrati a‘lo hoqoniy, muqarribi dargohi subhoniy, muravviji qavoidi saltanat, mumahhidi manzilat, avrangzebi xilofat, masnadoroyi jalolat, kayvonjoh, xurshidkuloh, adolat manqabat, muallo manzilat. Nazm:*

***Falak joygohu muallo hasham,
Quyoshdek sarafrozu zarrin alam.
Tutub yer yuzin iqtidori oning,
Fuzun tog‘lardin viqori oning.***

Tarixchi Munis ta‘biri bilan aytganda, *“a‘zami salotini olam, afzali xavoqini muazzam, shams al-a‘zam va-l-jalol, qutb as-samo‘ al-hashmat va-l-iqbol, rofe‘ maqomi shariati sayyid al-mursalin, bositi bisot al-adl, va-r-rofat ala-l-olamin, qomei bunyodi kufr va tug‘yon, nosibi livoi amnu amon, xalifat az-zamon fi-l-foq, moliki sariri xilofat bi-l-irs va-l-istihqoq, al-muayyid min indilloh al-malik al-mannon, al-mansur ala al-ado bi-t-tavfiq as-subhon, ya‘ni podshohi sohibqiron Abu-l-muzaffar va-l-mansur Abu-l-fath Eltuzarxon” dir.*¹

Uning zamonida xonlik taraqqiy etgan. Fitratning yozishicha, “Milodiy 1804 yilda Xorazm xonlig‘i Eltuzarxong‘a o‘tkandan keyin Xorazm o‘lkasi ikkinchi tinchsizliklardan bir oz qutiladir. Hukumat markazi obodliqqa yuz tutadi. Ichki tinchlik natijasida iqtisodiy hayot ko‘tarila boshlaydi. Sayyid Muzaffarxo‘ja Kiromiy va uning shogirdi bo‘lg‘an Shermuhammad Munis kabi shoirlar yetishadilar. Munis tomonidan “Firdavs ul-iqbol” ismli buyuk Xorazm tarixi yozila boshlaydir”.² Ya‘ni, xon adabiy majlisiga taklif qilingan shoir Munis hukmdor Eltuzarxon buyrug‘i bilan “Firdavs ul-iqbol” asarini yozishga kirishgan. Bu haqda Munisning o‘zi shunda yozgan: “Chun mundoq suhbat firdavs nazhatg‘a doxil bo‘ldum, o‘zimni zarrae qildimkim, quyosh huzurida sargashtai havoi iztirob bo‘lg‘ay va qatrai yaqin bildimkim, muhit junbida

¹ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.31.

² Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma‘naviyat, 2000.-B.59.

adam va noyob ko‘runga, mastlardekkim, kuchlik boda hiddatidin behud bo‘lg‘ay, ubidiyat tufroqig‘a yiqildim va bandalik ziyluchasining go‘shasin bo‘sa qildim. Chun adab oyoqig‘a turdim, ta‘zim rasmin zuhurg‘a yetkurdim. Nasoimi altofi sultoniy, ravoyihi ishfoqi sohibqironiy harakatg‘a kirib, bandanavozlig‘ yuzidin tashrif inoyati bila mumtoz va ehsoni beg‘oyati bila sarafroz qilib, guharafshoni takallum bo‘ldikim, nazm:

***“Ey qadimul xizmati dargohimiz,
Sidq maydonida hoki rohimiz.
Aylagan yetti otang chekmay ilik,
Yetti abomiz qoshida bandalik.”³***

Jahon mulki bedillar ko‘nglidek xarobobod va hayot binosi ra‘nolar ahdidek bebunyoddur. Bas, muningdek mulkda iqomat qilmoq va bu nav binoda manzil tutmoqdin g‘araz uldirkim, kishidin zikri jamil yodgor qolsa va yaxshi ot poydor. Bu muddao imorat ta‘miridin hosil ermas va avlod tanosilig‘a ham shomil. Magar so‘z debochasida boqiy qolg‘aykim, ul debochaning sherozai baqosig‘a havodisi davron miqrozi inqiroz bila yetkura olmas va avroq jamiatin tasorifi zamon tundbodi tafriqa bila sovura olmas. Masnaviy:

***Imorat ila xotiring qilma shod,
Tanosil baqosig‘a ham e‘timod.
Bori oqibat munadimdur bore,
Agar so‘ngra bo‘lsun va gar ilgari.
Erur so‘z aningdek mushayyad bino,
Ki yiqmas asosini seli fano.***

Bahori xohishimiz bu ma‘nig‘a chamanpardoz bo‘lurkim, salotini moziy sunani va shuaro salaf da‘big‘a muvofiq bir kitob muzayyan bo‘lsakim, xiyoboni suturida guldastai nazm va sunbuli nasr nazokat obu rangidin rashki gulzori aliyyin bo‘lg‘ay, latofati iborat va nakhati ma‘ni bila g‘ayrati behishti barin bo‘lg‘ay. Emdi kerakkim, bizning nasabi humoyunimizni so‘z devonida kursinishin va ajdodi amjodimiz asomiysin tarix xotamida naqshi nigin qilsang va o‘z holatimiz va ba‘zi futuhotimiz bilakim, ziynati afsona va nosixi “Shahnoma”dur, nazm rishtasiga durri maknun tersang va nasr bisotig‘a gunogun ziynat bersang, to bo‘lg‘aykim, davron sahoifi fano tundbodi bila parishon bo‘lub, olam koshonasi adam seli bila vayron bo‘lg‘uncha avsofi hamidimiz zamon avroqida boqiy qolg‘ay va zikri pisandidamiz jahon majolisida salotin bazmig‘a shurush solg‘ay. Nazm:

***Garchi ko‘btur latifagu shuaro,
Nuktasanj ahli fazl vaqt aro.
Nazm tegi bila jahon ochgon,***

³ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.33.

Nasr bazmi aro guhar sochgon.

Lek sandin ko‘rub base ixlos,

Sani bu xizmat ichra qilduq xos.

Nukta uzra qalamdek ayla shitob,

To yetushgay nihoyatig‘a kitob.⁴

Chun mundoq marhamat oftobi partavi iltifot bila bu xoksori tiyra ro‘zgorning xotirin munavvar qildi, beqarorlig‘ havosida zarravor bolafshon bo‘ldumkim, na xotirim daftarig‘a jildi qudrat bor va na ko‘nglum devonig‘a sherozai jamiat. Bas, bu parishonlig‘lar bila ish shuuruig‘a nechuk mayl qila olg‘ayman va xizmat uhdasidin ne nav kela olg‘ayman. Bu asnoda mahramlardin birovkim, muqarribi hazrat sultoniy, maqbuli dargohi sohibqironiy erdi, bu kayfiyat vuquin farosat yuzidin anglab, surishi g‘aybiy va mulhimi loraybiydek Mirzo Nozim Hiraviy devonidin bu misra tarannumi bila dildorlig‘ ko‘rguzdikim, misra’: *Iltifoti podshohon kimiyo davlat ast (Podshohlar lutfi davlatdan keluvchi bir baxtdir)*. Ore salotin marhamatida kayfiyatedurkim, gadoni darajai saltanatg‘a yetkurur va suvratni mahali harakatg‘a keltirur. Va muluk tarbiyatida nishondurkim, qo‘zg‘unni to‘tidedek go‘yo qilur va to‘tini Masihoso. Va har kishikim mundin bahramand ermas, har nechakim guhari asildur, tosh silkiga ham kirmas. Chun bu navoi tarabafzo istimoig‘a musharraf bo‘ldum va o‘zumni “alma‘muri ma‘zurun” uzrig‘a mukallaf topdim, himmat kayfiyati lol tilimni beixtiyor mundoq shirin maqol qildikim. Masnaviy:

Agar podshoh aylasa iltifot,

Bo‘lurman balog‘atfazo nukot.

Uray dastu po quvvatim boricha,

Qilay justiju qudratim boricha.

Nekim kelsa tildin darig‘ etmayin,

Ilik chekmayin to bu ish bitmayin.

Chun ruxsati insirof hosil bo‘ldi, bir go‘sha ixtiyor qildim va ul go‘shada qaror tuttim. Qit‘a:

Tutubman go‘shalik el hujumidin hamul go‘sha,

Man oshiftaga andoqki sahroi qiyomatdur.

Yana tab‘img‘a dahr ishig‘olidin za‘fe erur tori,

Bale, savdoiy o‘lg‘ang‘a na imkoni salomatdur.

Malomat qilmangiz, nuqsonima gar bo‘lsangiz voqif,

Kishikim bo‘yla holi bo‘lsa, na joyi malomatdur.

Har taqdir bila bu muxtasar shuurig‘a xomai ibtido surildi, chun bahori iqboli sohibqironiy bila firdavsdek ziynat topib erdi, banoan alayh “Firdavs al-iqbol”g‘a

⁴ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.33-34.

mavsum bo‘ldi”.⁵ Shunday qilib, tarixchi va shoir Munis Xorazm tarixini yoza boshlaydi.

Eltuzarxon atrofida shoirlar to‘planib, adabiy o‘tirishlar o‘tkazganlar va she‘riyat kechalarida hukmdorni madh etib, she‘rlar o‘qiganlar. Adabiy yig‘inlarda ishtirok etgan Munis o‘z qasidalarida hukmdorni madh etgan: “*Munis shohni ulug‘ sifatlar bilan madh etib, uning yetimparvar, daryodil va saxovatpeshaligini alohida ta’kidlaydi:*

***Zakiy hamida xisolingki yetmas anga malol,
Faqirlarg‘a ato aylabon farovon mol.
Vujudi Eltuzar oti kabi jahon maliki,
Ajab yo‘q o‘lsa agar ravza infioniyg‘a dol***”.⁶

Shoirning “Munis ul-ushshoq” devonida Xiva xoniga bag‘ishlangan qasidalar keltirilgan.

***Beza, ey shohidi davlat, menga vasling shabistonin,
Charog‘i majlis afro‘z et jamoling mohi tobonin.***⁷

Tadqiqotchi J. Ismatilloevning yozishicha, Eltuzarxon davrida ilm, adabiyot va san‘at ahliga e‘tibor kuchaygan.⁸

Xonning o‘zi ham badihatana she‘r aytib turgan. “Muntaxib at-tavorix”da keltirilishicha, Eltuzarxon o‘z ismini muhriga nazm bilan o‘yib yozdirgan:

***Xasmdin aylamogon andesha,
Eltuzarxoni shijoat pesha.***⁹

Eltuzarxonning ukasi Muhammad Rahimxon I ham adabiyotni qadrlagan. Manbalarda Xorazm xoni Muhammad Rahimxon I ibn Avaz Inoq ibn Muhammad Amin Inoq ham ijod bilan shug‘ullangani to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud.¹⁰

Bir davrda O‘rta Osiyoda xonlik qilgan uch shoir o‘zbek sultoni – Umarxon (Amiriy), Amir Haydar (Sayyidiy) va Muhammad Rahimxon (Muhammad Rahim)lar birinchilar she‘r yozish bobida ham bahslashganlar.¹¹ Ma‘lumki, uch o‘zbek xonligi birlashish o‘rniga, o‘zaro qarama-qarshilik va jangu jadal yo‘lidan borganlar, bir – birining hududiga bostirib kirganlar. Uch xonlik hukmdorlari kibr – havo, manmanlikka berilib, hatto she‘r yozib o‘zlarini yuqori olgan holda qo‘shnilarini aksincha kamsitganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, *Umarxon Buxoro elchisiga:*

***Sazad, ki miri Buxoro mutei man gardad,
Umar ba vaqti xilofat muqaddam az Haydar.***

⁵ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.33-36.

⁶ Ismatilloev J. Munis ijodida Eltuzarxon madhi.// «Научный импульс», sentyabr, 2022.-№ 2 (100). Chast 2.-S.472-475.

⁷ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.100.

⁸ Ismatilloev J. Munis ijodida Eltuzarxon madhi.// «Научный импульс», sentyabr, 2022.-№ 2 (100). Chast 2.-S.472-475.

⁹ Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix. (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar). Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.53.

¹⁰ Ko‘rsatilgan asar.-B.55.

¹¹ Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. T.: Turon zamin ziyo, 2014.-B.477.

(Mazmuni: Buxoro amiri menga tobe bo'lsa arziydi, Xalifalikda Umar Haydardan oldin bo'lgan.)

deb aytganida, qabulda hozir bo'lgan Xiva elchisi esa Xorazm qo'ng'irotlari xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) nomidan Umarxon va majlis ahliga qarata shunday degan:

**Muhammad Rahim oldida tobsa joy,
Umar tobe o'lmazmu, Haydar mute'?**¹²

Ya'ni, yuqoridagi bayt bilan Umarxon “amiri Buxoro tobe o'lmag'i lozimdur, na uchunki, martabam xilofatda Haydar hazrati Umarga tobe bo'lub, so'ngra hazrati Haydari karror Ali al-Murtazo keladur”,¹³ demoqchi. Xiva xoni esa Umarxonga yo'llagan (yuqorida zikr etilgan) javob misralari bilan esa “Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallam Hazrati Boriy ta'olo oldida martaba topganda, har ikkilaringiz tobei matbu'lik iddaosidan kechib, Muhammad Rahimxong'a itoat qilsalaring, vansabdur”,¹⁴ degan. Mulla Olim Mahdum Hoji “Tarixi Turkiston”da yozishicha, “Oltun sakkasining bir tarafida hamda Muhammad Rahim Bahodirxonning muhrida yuqoridagi bayt (Muhammad Rahim oldida tobsa joy, Umar tobe o'lmazmi, Haydar mute'?) munaqqash edi”.¹⁵ Binobarin, “Tarixi Turkiston”dan ma'lum bo'lishicha, Umarxon nomidan aytilgan “Buxoro amiri menga itoat qilsa arziydi, Negaki Umar xalifalik ishida Haydar (Hazrat Ali)dan oldindur”, bayti Mirzo Junayd (Hoziq) qalamiga mansubdir. Manbalarda zikr etilishicha, “bu bayt amir Haydarga masmu' bo'lib, bir necha vaqtdin keyin Mirzo Junayd Buxoroga borib, amirg'a manzur bo'lg'onda, amir mazkur baytni oning yodig'a soldi. Mirzo Junayd fil badiha:

Boshim beshta sarvar yo'lining tuprog'i bo'lsin,

Ular – Abu Bakr, Umar, Usmon va yana ikki Haydar (Hazrati Ali va Amir Haydar)dir, - degan edim, deb javob qaytarib, bovujud amirdin qo'rqib, fursat topib, Shahrizabzg'a qochib keladi”.¹⁶

Ayrim tarixiy va adabiy manbalarda Muhammad Rahimxonning she'rlar yozgani aytilgan. E-tarix.uz saytidagi “Muntaxab at – tavorix” nomli maqolada qayd etilishicha, Xorazm xoni Muhammad Rahimxon I g'azallar bitgan.¹⁷ Tadqiqotchi M. Amonov “G'azaliyoti Mug'anniy” asari qo'lyozmasi haqida yozar ekan, uning muallifi Muhammad Rahimxon I degan fikrga kelgan: “Mazkur asar muallifi haqida so'z ketganda, asarning boshidan oxirigacha “Mug'anniy” taxallusi bilan g'azal va

¹² Ko'rsatilgan asar.-B.477.

¹³ Ibrat. Farg'ona tarixi. T.: Kamalak, 1991.-B.290.

¹⁴ Ko'rsatilgan asar.-B.290.

¹⁵ Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, Nasaf, 1992.-B.128.

¹⁶ Ko'rsatilgan asar.-B.113.

¹⁷ <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/248-muntaxab-at-tavarix.html>

baytlar bitilgan. Asarda muallif ismiga ishora bo‘lgan, ushbu holatni (quyida) ko‘rish mumkin:

Muhammad Rahimxon kelib ot anga,

Ki zotig‘a shohliq atoyi Xudo.

Kelib qurrati oliy Xon ibn Xon,

Ota mulkini ayladi jobajo.

Chu Ollohqulixon der inoqi oliy,

Izzat aylamakdur ishi doimo.

Salomat salomat salomat salim.

Oliy zamon Muhammad Rahim.

Ushbu qo‘lyozma asarda Muhammad Rahimxon davrigacha bo‘lgan voqea – hodisalar tasvirlangan, ikkinchidan asar oxiridagi “Marsiya”da Muhammad Rahimxon nomi uchramaydi, uchinchidan, asar 1822 – 1824 yillar oralig‘ida yozilganligi hamda muallif asarni yozib tugatgach, bashoratomuz umri nihoyasiga yetayotganligini ta’kidlab o‘tgan. Ushbu qo‘lyozma asarda ko‘plab hududlarni bosib olinganligi, Muhammad Rahimxon I ning o‘zidan keyin kelishi kutilayotgan taxt vorisi Ollohqulixonga adovatda bo‘lmaslik hamda unga yordam berishlik to‘g‘risidagi so‘zlari, davlat boshqaruvida islohotlar o‘tkazganligi kabi voqealarga e‘tibor qaratilgan. Taxminimizcha, asar Muhammad Rahimxon I ning o‘zi yoki xonning bevosita ko‘rsatmasi asosida, uning so‘zlari bilan yozilgan degan xulosaga kelish mumkin”.¹⁸

Tarixiy ma’lumotlar xonning bilimdon bo‘lganligini ko‘rsatadi. U tashqi qiyofasidan odamni o‘ziga jalb etadigan, ochiq chehrali, ko‘zlari kichik, uzun bo‘yli, kuchli sog‘lom kishi bo‘lgan.¹⁹ Muhammad Rahimxon I arab va fors tillarini bilgan. Ilm ahliga homiylik qilgan. Olim, shoir va donishmandlar bilan ilmiy va adabiy suhbatlar o‘tkazib turgan.²⁰ Naql qilinishicha, “1819 yil Xivada bo‘lgan Rossiya elchisi kapitan N.Muravyovning ta’kidlashicha, bu hukmdor boshqa xonlardan farqli o‘laroq, tabobat hamda munajjimlikdan yaxshigina boxabar, shaxmat o‘yinida mohir va ilm-ma’rifatga rag‘batli shaxs bo‘lgan.

Muhammad Rahimxon I arab va fors tillaridan xabardor taqvodor hukmdor bo‘lganligi uchun xalq uni “Oxund (mulla, ustoz, xudojo‘y) xon” deb atagan.

Mazkur xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash (Devon) ta’sis etilgan bo‘lib, har juma kuni xon saroyining ko‘rinish xonasida Kengash chaqirilib, unda o‘tgan hafta davomida xonlik hududida ro‘y bergan voqea – hodisalar muhokama qililib, tashqi va ichki siyosat borasida kengashib olingan. Kengashdan so‘ng

¹⁸ Amonov M. “G‘azaliyoti Mug‘anniy” – Xiva xonligi tarixini o‘rganishda muhim manba. Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. Toshkent – Urganch, 2018. -B.386-389.

¹⁹ <https://m.ok.ru/group/56642336850002/topic/152884297804626>

²⁰ Ernazarov Sh., Raxmonov B. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: TIQXMMI, 2019. -B.139.

“Oxun(d) xon” Xorazmning olimu ulamolari, fozilu fuzalolari, shoiru donishmandlari bilan shariat va ilmu adab bo‘yicha suhbatlar o‘tkazgan”.²¹

Xon Munisga Eltuzarxon davrida boshlangan “Firdavs ul-iqbol” asarini davom ettirishga sharoit yaratib bergan. Bundan tashqari, 1813 - yilda Munisga “Ravzat us-safo” asari tarjimasini topshirgan.²²

Xon huzurida muntazam adabiy majlislar o‘tkazib turilgan.²³

*Ajab bazmi shohona barpo bo‘lub,
Na dilxoh bo‘lsa muhayyo bo‘lub.
Behishti barindin fuzun ziynati,
Qilib zor Bahromni hasrati.
Ko‘rub ani nogoh charxi baland,
Bo‘lub ko‘zi hayratdin oyinaband.
Tanaum nihoyatdin afzun kelib,
Tarannum navsozi qonun kelib.
Vale taxt uza shohi ishratparast,
Xudo lutfining jomi shukriga mast.
Agarchi bo‘lub panjasi ganjrez,
Vale ko‘ngli haq shavqidin ganjxez.
Bo‘lub zohiri garchi ishrat bila,
Vale botini zavqi vahdat bila.
Botib suvrati zarga po to ba farq,
Vale siyrati ganji ma‘nig‘a g‘arq.
Bu majlis aro xoslar xos o‘lub,
Bori aysh bahrig‘a g‘avvos o‘lub.
Shah altofidin barchasi shodkom,
Bo‘lub sarxushi inbisot tamom.
Bu dasturda kecha ham bazm edi,
Tong otg‘uncha shah ishrati jazm edi.*²⁴

Adabiy kechalarda Abulmaoniy mullo Niyozmuhammad kabi shoirlar Xiva xonini madh etib, qasidalar o‘qishgan:

*Shukrkim kishvariga xon keldi,
Olomon barchasi omon keldi.
Bir badan erdi mamlakat jonsiz,
Filmisl ruh ila ravon keldi.
Obro‘yi tamom birla borib,*

²¹ Zamonov A. O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma‘lum sahifalari. T.: Bayoz, 2020.-B.151-152.

²² Sultonov F., Bozorboev F. O‘zbekiston hukmdorlari. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zMK, 2007.-B.63.

²³ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.266.

²⁴ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.266.

Marhabo xusravi jahon keldi.
 Fathu nusrat rikobiga tushubon,
 Xizru Ilyos haminon keldi.
 Dahr badxohi neqxohiga
 Mamlakat baxshu jonsiton keldi.
 Toleyu baxt o‘lub madadkori,
 O‘pgali xoki oston keldi.
 Simposhand vojib ut-ta‘zim,
 Zilli rahmani xudoyigon keldi.
 Shah Muhammadrahimi daryodil,
 Kafi judi chu bahru kon keldi.
 Yetti pushtini dema shohnishon
 Yetmish abosi hukmron keldi.
 Borg‘oni manshai zimistondek,
 Qayturda yozdin nishon keldi.
 Mujda ey shahar eli ki zilli ilah,
 Bo‘lg‘oli sizga soyabon keldi.
 Ilg‘orida g‘azab bila talashib,
 G‘unchason bordi, guliston keldi.
 Shahardin qahr bila otlanibon
 Nesh bordi-yu no‘shi jon keldi.
 Qahr ila yuz qo‘yub shimol sori
 Demadi qor yo bo‘ron keldi.
 Qildi bir ish ki, odamiy qilmas,
 Anda lol aqli xo‘rdadon keldi.
 Olti sonlig‘ Olloshga ot surubon,
 Solib oshubu qo‘zg‘olon keldi.
 Rohzanlarni aylabon taroj,
 Tortibon jonidin fig‘on keldi.
 Dashti Qipchoqg‘a solib shurush,
 Komjo‘ bordi, komron keldi.
 Bo‘lubon lashkar o‘ljin g‘arrin,
 Shohdin barcha shodmon keldi.
 Necha yuz ming qator teva uza,
 Molu asbobi bekaron keldi.
 Oldi ximsi muborakin eldin,
 Shaharga ganji shoygon keldi.
 Munshiyo, so‘zni muxtasar qilg‘il,
 Eshitur elga ko‘p garon keldi.

*To ki qudrat qo‘li qazo qalami,
Ofarinishga naqshron keldi.
Shoh bo‘lg‘ay jahon aro sarsabz,
Har necha davri osmon keldi.²⁵*

Muxtasar aytganda, she‘riyatsevar aka-ukalar - Eltuzarxon va Muhammad Rahimxon I lar huzurida o‘tkazilgan adabiy majlislar xorazmlik shoirlar ijodi hamda mumtoz adabiyotimiz va san‘atimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.31.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma‘naviyat, 2000.-B.59.
3. Ismatilloev J. Munis ijodida Eltuzarxon madhi.// «Научный импульс», sentyabr, 2022.-№ 2 (100). Chast 2.-S.472-475.
4. Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix. (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar). Fors-tojik tilidan tarjima, muqaddima va izohlar muallifi Sh.Vohidov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.53.
5. Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. T.: Turon zamin ziyo, 2014.-B.477.
6. Ibrat. Farg‘ona tarixi. T.: Kamalak, 1991.-B.290.
7. Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi, Nasaf, 1992.-B.128.
8. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/248-muntaxab-at-tavarix.html>
9. Amonov M. “G‘azaliyoti Mug‘anniy” – Xiva xonligi tarixini o‘rganishda muhim manba.Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda. Toshkent – Urganch, 2018. -B.386-389.
10. <https://m.ok.ru/group/56642336850002/topic/152884297804626>
11. Ernazarov Sh., Raxmonov B. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: TIQXMMI, 2019.-B.139.
12. Zamonov A. O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma‘lum sahifalari. T.: Bayoz, 2020.-B.151-152.
13. Sultonov F., Bozorboev F. O‘zbekiston hukmdorlari. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zMKN, 2007.-B.63.
14. Qorayev Sh. O‘zbek xonliklarida adabiy kechalar (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). -T.: “LESSON –PRESS”, 2022.-B.114.
15. Qorayev Sh. O‘rta asr manbalarida o‘zbek xonliklari adabiy kechalari tarixi (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida). -Qarshi: “Intellekt”, 2023.-B.148.
16. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. -Qarshi: Intellekt, 2023.-B.206.
17. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya.- Qarshi: Ilm, fan va ma‘naviyat, 2024.-B.264.

²⁵ Munis, Ogahiy. Firdavs ul – iqbol. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.392-393.